



## STATISTIKA KO'RSATKICHLARINING TENDENTSIYALARI

*Rustamov Shaxriyor*

*Guliston Davlat Universiteti talabasi*

*Nurbekov Abdumurod*

*Guliston Davlat Universiteti talabasi*

*Turayeva Gulizahro*

*Guliston Davlat Universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Statistika ijtimoiy – iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o'rganadi. Ijtimoiy voqea – hodisalarga aholining soni, uning xarakati, sog'ligi, ta'lim olishi, turmush darajasi bilan bog'liq jarayonlar kiradi. Iqtisodiy voqea – hodisalarga mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, savdo, sog'liqni saqlash va shu kabi tarmoqlarda sodir bo'layotgan jarayonlar), tayyor mahsulotlarni taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish bilan bog'liq jarayonlar kiradi. Ijtimoiy – iqtisodiy voqea – hodisalar holati va harakati ma'lum ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Statistik ko'rsatkich - bu ommaviy hodisa va jarayonning me'yori, ya'ni uning sifat va miqdor birligini ifodalash hisoblanadi. Statistik ko'rsatkichlar deb ma'lum makon va zamon sharoitida ommaviy hodisa va jarayonlarning holatini, rivojlanishini, tuzilishini, o'zaro bog'lanishlarini ifodalovchi me'yorlar yuritiladi. Va bu maqolada statistik ko'rsatkichlarning turlari va mohiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Statistika, guruhlash, mutloq miqdorlar, nisbiy miqdorlar, taqqoslash, zahiraviy ko'rsatkichlar, oqim ko'rsatkichlari, absolyut miqdorlar, nisbiy ko'rsatkichlari.

### **Kirish**

Statistik ko'rsatkichlarning turlari hodisalar kabi ko'p bo'lganligi sababli, ularni biror belgilari bo'yicha tasniflash lozim bo'ladi. Statistik ko'rsatkichlar voqea – hodisalar to'plamiga qarab, makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy ko'rsatkichlarga guruhlanadi. Mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar faoliyat yurutuvchi sub'ektlarda (firma, korxonalar ularning bo'limlari, birlashmalar, korporatsiyalar va shu kabilar) sodir bo'layotgan jarayonlarni ifodalaydi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar mamlakat yoki uning hududlaridagi ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlar holati va xarakatini ifodalaydi.

Statistik ko'rsatkichlar miqdori raqamlar bilan ifodalanadi. Miqdorlar mohiyatiga ko'ra mutloq, nisbiy va o'rtacha miqdorlarga bo'lishi mumkin.

### **Tahlil va natija**

Mutloq ko'rsatkichlar o'rganilayotgan hodisalar va ularning belgilarini bir xilligini, monandligini, o'xshashligini ifodalaydi. Ular hodisalar va ularning belgilarining ko'lamini, soni, hajmi, darajasi makon va zamonda taqsimlanish shaklida namoyon bo'ladi. Mutloq miqdorlar hodisalar to'plami yoki bir butun qismini ta'riflashiga qarab makro va mikro ko'rsatkichlarga, olish usuliga asosan oqim va zahiraviy ko'rsatkichlarga bo'linadi. Absolyut miqdorlar natura va shartli natura birliklarida va pulda ifodalanadi. Mutloq miqdorlar o'rganilayotgan voqeyelik qanday tezlikda rivojlanayotganligini, uning takrorlanish intensivligini aniqlamaydi. Buning

uchun nisbiy miqdorlar qo'llanadi. Taqqoslash statistik ko'rsatkichlarni shakllantirishning muhim usulidir. U solishtirilayotgan hodisalar va belgilarning o'xshashlik tomonlari va farqlarini aniqlash imkonini beradi. Taqqoslashning turli yo'llari va shakllari mavjud

1-jadval

## Rossiya va markaziy Osiyo respublikalarida jon boshiga YaIM ishlab chiqarish va ayrim mahsulotlarni iste'mol qilish ko'rsatkichlari (o'rtacha 2019 yil<sup>1</sup>)

Respublikalar	Jon boshi -ga YaIM (AQ Sh dol.)	Jon boshiga iste'mol, kg			Rossiyaga nisbatan %			
		non va non mahsulotlari	go'sht va go'sht mahsulotlari	sabzavot (kartoshkadan tashqari)	YaIM	non	go'sht	sabzavot
Rossiya	2650	124	55	73	100	100	100	100
Qozog'iston	1160	176	51	54	44	142	93	74
Qirg'iziston	630	109	38	44	24	88	69	60
Tojikiston	360	155	14	97	14	125	25	133
Turkmaniston	...	147	24	90	...	119	44	123
O'zbekiston	960	162	33	134	36	131	60	184

Demak, jon boshiga YaIM ishlab chiqarish bo'yicha O'zbekiston Markaziy Osiyo respublikalari orasida 2-o'rinda, non iste'moli bo'yicha ham 2-o'rinda, go'sht iste'moli bo'yicha 3-o'rinda va sabzavot iste'moli bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi. (1-jadval) Rossiyaga nisbatan respublikamiz jon boshiga YaIM yaratish bo'yicha 2,8 marta va go'sht iste'moli bo'yicha 1,7 marta orqada qolmoqda. Ammo non iste'moli bo'yicha 1,3 marta va sabzavot bo'yicha 1,8 marta undan o'zib ketgan. Bunda mamlakatlarning Rossiya va markaziy Osiyo respublikalarida jon boshiga YaIM ishlab chiqarish va ayrim mahsulotlarni iste'mol qilish bo'yicha nisbiy miqdor ko'rsatkichlari aniqlangan. Nisbiy miqdorlar deyilganda bu ikki va undan ortiq mutlaq miqdorlarning taqqoslanishi tushuniladi. Nisbiy miqdorlarning turlari quyidagilar:

- Reja topshirig'i nisbiy miqdorlari, -Buyurtma bajarilish nisbiy miqdorlari.
- Dinamika nisbiy miqdorlari., -Tuzilma nisbiy miqdorlari.

<sup>1</sup> Манба: Экономическое обозрение, январь 2019 й,



-Koordinatsiyali nisbiy miqdorlari, -Intensiv nisbiy miqdorlari.

Birinchi qoida, - nisbiy ko'rsatkich asosidagi mutlaq (yoki nisbiy) miqdorlar mohiyatan real obyektiv bog'lanishga ega bo'lishi kerak. Agarda bu shart bajarilmasa, u holda «daraxt uzunmi yoki tun?», «aql ko'p-mi yoki bug'doy» degan iboralar tahlidida ish tutilgandek bo'ladi. Mazmunan taqqoslanayotgan ko'rsatkichlar bir biriga muvofiq bo'lishini ta'minlash zarur.

Ikkinchi qoida. Nisbiy ko'rsatkichlar asosidagi ko'rsatkichlar faqat bir xossasi (atributi), xususiyati bilan farq qilishi mumkin: masalan, obykti yoki makoni yoki vaqti yoki rejada ko'zlanishi yoki haqiqiy ko'rsatkich ekanligi. Ikki va undan ortiq xossalari (xususiyatlari) bilan farq qiluvchi ko'rsatkichlarni taqqoslab bo'lmaydi.

Uchinchi qoida. Nisbiy ko'rsatkich ega bo'lishi mumkin bo'lgan miqdoriy chegaralarni bilish va nazardan chiqarmaslik kerak.

**Xulosa.** Statistika ko'rsatkichlar rang-barang bo'lib, ular o'rganilayotgan hodisa yoki jarayonning turli jihatlarini ta'riflaydi. Hech qaysi ko'rsatkich turi ustuvorlikka ega emas, uning plyusi va minusi mavjud. Shu sababli iqtisodiy-ijtimoiy tahlilda barcha ko'rsatkichlar majmui, ularning tizimi qo'llanilishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Daris Singpurwalla A Handbook of statistics:an Overview of Statistical Methods Ist edition.2013 year
2. Абдуллаев Ё. Статистика назарияси. Дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 2002. – 647 б
3. Xolmurod, S., Saidbek, A., & Qaxharovna, T. G. (2023). SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI KO'RSATKICHLARINI STATISTIK KUZATISH. *Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения*, 1(5), 54-56.
4. Umarov, S. R. (1993). Some boundary value problems for elliptic equations with a boundary operator of fractional order. In *Doklady Akademii Nauk* (Vol. 333, No. 6, pp. 708-710). Russian Academy of Sciences.
5. Umarov, S. R. (1992). On the well-posedness of boundary value problems for pseudodifferential equations with analytic symbols. In *Doklady Akademii Nauk* (Vol. 322, No. 6, pp. 1036-1039). Russian Academy of Sciences.
6. Rustamovich, U. S. (2017). Features of innovative water management in the modernization of economy. *TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research (TAJMMR)*, 6(1), 45-53.
7. Умаров, С. (2017). Основные направления инновационного развития водного хозяйства и его поддержка. *Экономика и инновационные технологии*, (1), 43-50.
8. Nazarova, O., Khujaev, O., & Jumanazarov, G. (2023, March). Septoria (*Septoria pistaciae* Desm.) pathogen infecting pistachio nuts in Uzbekistan and its biological characteristics. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1142, No. 1, p. 012051). IOP Publishing.



9. Khujaev, O., Obidjanov, D., Tursunov, O., & Nazarova, O. (2021, December). Types and composition of diseases and pests of restructured forest and pasture plants in the dry part of the Aral Sea. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 939, No. 1, p. 012084). IOP Publishing.
10. Dilafruz, Y., Odina, N., & Otabek, K. (2023). EFFECT OF THE FUNGUS STIGMINA CARPOPHILA (LEV) ON ALMOND FRUIT WEIGHT. American Journal of Technology and Applied Sciences, 16, 1-3.

